

PEDAGOGIK TA’LIMDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Nabijonova Zilola Toxirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Pedagogika yonalishi
1-bosqich PED-BU-26 guruh talabasi
Ilmiy raxbar: Siddiqov Azamat katta o’qituvchi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22960656>

Annotatsiya: Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini anglash darajasi hamda qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish muhim ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak oqituvchilarning huquqiy bilimlarini oshirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Chunki pedagog kelajak avlodning nafakat bilim olish, balki uning ijtimoiy, ma'naviy va fuqarolik sifatlari shakllantirishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada pedagoik ta'limda huquqiy madaniyatini shakllantirish mazmuni, ahamiyati, pedagogning ushbu jarayondagi o'rni hamda talabalarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning samarali usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, huquq, ta'lim, tarbiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, talaba, Konstitutsiya, qonun, mas'uliyat.

Аннотация: Сегодня развитие общества, уровень осознания гражданами своих прав и обязанностей, а также уважительное отношение к законам являются одними из важных социальных вопросов. Особенно актуальной задачей в процессе педагогического образования является повышение правовых знаний будущих учителей, а также развитие у них правового сознания и правовой культуры. Ведь педагог оказывает влияние не только на получение знаний подрастающим поколением, но и на формирование его социальных, духовных и гражданских качеств. С этой точки зрения в данной статье рассматриваются содержание и значение формирования правовой культуры в педагогическом образовании, роль педагога в данном процессе, а также эффективные методы развития правовой культуры у студентов.

Ключевые слова: педагогика, право, образование, воспитание, правосознание, правовая культура, студент, Конституция, законодательство, ответственность.

Annotation: Today, the development of society, the level of citizens' awareness of their rights and responsibilities, as well as a respectful attitude towards laws, are among the important social issues. In particular, in the process of pedagogical education, increasing the legal knowledge of future teachers and developing their legal awareness and legal culture are important and relevant tasks. This is because a teacher influences not only the education of the younger generation but also the formation of their social, spiritual, and civic qualities. From this perspective, this article examines the content and significance of developing legal culture in pedagogical education, the role of teachers in this process, as well as effective methods for developing legal culture among students. Pedagogik ta'limda huquqiy madaniyatni shakllantirish shaxsning nafaqat huquqiy bilimlarini oshirish, balki uning qonunlarga hurmat, adolat,

mas’uliyat, inson huquqlarini qadrlash va o‘z xatti-harakatlarini huquqiy me’yorlar asosida boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Huquqiy madaniyat insonning o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi, ulardan to‘g‘ri foydalanishi, qonunlarga rioya qilishi hamda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishi orqali namoyon bo‘ladi.

Keywords: pedagogy, law, education, upbringing, legal awareness, legal culture, student, Constitution, legislation, responsibility.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy huquqiy manbalaridan biridir. Konstitutsiyaning 15-moddasida O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinishi belgilangan. Shuningdek, davlat organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq ish yuritishi kerakligi ko‘rsatilgan. Ushbu norma huquqiy davlatning asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, yosh avlodda qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Konstitutsiyaning 19-moddasida inson huquq va erkinliklari e’tirof etilishi va kafolatlanishi, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi belgilangan. 20-moddada esa inson va davlatning o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqligi, inson huquq va erkinliklarining daxlsizligi qayd etilgan. 21-moddada har bir insonning o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqi bilan bir qatorda, o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shartligi belgilangan.

Mazkur konstitutsiyaviy normalar pedagogik ta’lim uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki bo‘lajak pedagog o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida inson qadr-qimmat, tenglik, adolat va boshqa shaxslarning huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga amal qilishi lozim. Shu sababli huquqiy madaniyatni bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin.

Konstitutsiyaning 50-moddasida “Har kim ta’lim olish huquqiga ega” ekani belgilangan. Shuningdek, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi ko‘rsatilgan. Ushbu norma ta’lim olish insonning asosiy huquqlaridan biri ekanligini huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

Konstitutsiyaning 51-moddasida fuqarolarning oliy ma’lumot olish huquqi, oliy ta’lim tashkilotlarining akademik erkinligi, o‘zini o‘zi boshqarish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va o‘qitish erkinligi huquqlari belgilangan. Bu holat oliy ta’lim muhitida talabani mustaqil fikrlashi va huquqiy ongini rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaning 52-moddasi pedagogik ta’lim mavzusi uchun ayniqsa muhimdir. Unda o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalashning asosi sifatida e’tirof etilgan. Davlat o‘qituvchining sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, uning ijtimoiy va moddiy farovonligi hamda kasbiy o‘sishi haqida g‘amxo‘rlik qilishi belgilangan. Demak, pedagogning jamiyatdagi o‘rni faqat ta’lim berish bilan chegaralanmaydi. U yosh avlodning huquqiy ongi va fuqarolik mas’uliyatining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun pedagogik oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularning kasbiy huquq va majburiyatlarini anglashiga sharoit yaratish muhim vazifalardan biridir. Konstitutsiyaning 60-moddasida “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini

hurmat qilishga majburlar” deb belgilangan. Ushbu norma huquqiy madaniyat tushunchasining mazmunini bevosita ifodalaydigan muhim konstitutsiyaviy qoidalardan biridir.

Mazkur talabni pedagogik faoliyatga tatbiq etadigan bo‘lsak, o‘qituvchi o‘zining huquq va majburiyatlarini bilishi bilan birga, o‘quvchilarning ham huquq va erkinliklarini hurmat qilishi kerak. O‘quvchini kamsitmaslik, uning fikrini tinglash, adolatli munosabatda bo‘lish va uning qonuniy manfaatlarini hisobga olish pedagogning huquqiy madaniyatini namoyon etuvchi jihatlardandir. Konstitutsiyaning 78-moddasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi belgilangan. Shuningdek, davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik va Vatanga mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish haqida g‘amxo‘rlik qilishi qayd etilgan.

79-moddada esa davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi hamda ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirishi belgilangan. Bu norma yoshlarning huquqiy faolligini oshirish va ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlash zarurligini ko‘rsatadi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan maxsus huquqiy hujjatlarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning muhim yo‘nalishlarini belgilagan. Mazkur hujjatning mazmunidan kelib chiqib, huquqiy madaniyatni faqat huquqshunoslar orasida emas, balki butun jamiyatda, ayniqsa yoshlar orasida shakllantirish zarurligi ko‘rinadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim muassasalari huquqiy tarbiyaning asosiy muhitlaridan biri hisoblanadi. Pedagog esa ushbu jarayonning bevosita ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida huquqiy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha keyingi yillarda yangi vazifalar ham belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-son “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni yuridik ta’limni zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga qaratilgan.

Mazkur Farmonda 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5–7-sinflarida Tarbiya fani doirasida o‘quvchilarning huquqiy ongini shakllantirishga qaratilgan mavzularda vizual, jumladan komiks kontentlardan foydalanish yo‘lga qo‘yilishi belgilangan. Shuningdek, huquq fanidan bilim darajasini baholash bo‘yicha test sinovlarini tashkil etish va natijalar asosida davlat namunasidagi sertifikat berish tartibini joriy etish nazarda tutilgan.

Ushbu hujjat pedagogik ta’lim uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki huquqiy ongni shakllantirishning zamonaviy usullaridan foydalanadigan pedagogni tayyorlash zarurati ortmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchi huquqiy bilimlarni o‘quvchiga faqat nazariy ma’lumot sifatida emas, balki uning kundalik hayoti bilan bog‘liq misollar, vizual materiallar, muammoli vaziyatlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali yetkazishni bilishi kerak.

PF-232-son Farmonda yuridik ta’limda amaliy o‘qitish, klinik va dual ta’lim tamoyillarini rivojlantirish ham ko‘zda tutilgan. Unda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratilgan.

Bu yondashuv pedagogik ta’limdagi huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun ham metodik jihatdan muhimdir. Huquqiy madaniyat masalasini pedagogik nuqtayi nazardan asoslashda o‘zbek ma’rifatparvari Abdulla Avloniy qarashlari ham muhim o‘rin tutadi. U “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, deb ta’kidlagan. Ushbu fikr tarbiyaning inson va jamiyat hayotidagi o‘rnini nihoyatda yuqori baholaganini ko‘rsatadi.

Avloniyning mazkur qarashlarini huquqiy madaniyat bilan bog‘laydigan bo‘lsak, insonning qonunga munosabati ham ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Huquqiy madaniyatli shaxsni tarbiyalash uchun unga huquqiy bilim berishning o‘zi yetarli emas; unda qonunlarga hurmat, adolat, mas’uliyat va boshqa insonlarning huquqlarini qadrlash kabi fazilatlarni ham shakllantirish zarur.

Chet el pedagogik tafakkurida ham ta’limning shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rniga katta e’tibor berilgan. Amerikalik pedagog va faylasuf John Dewey “Democracy and Education” asarida ta’limni jamiyat hayoti va demokratik munosabatlar bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida tahlil qilgan. Uning qarashlarida ta’lim shaxsni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash bilan bog‘lanadi. Bu yondashuv huquqiy madaniyatning muhim jihatlaridan biri bo‘lgan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan uyg‘unlashadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik ta’limda huquqiy madaniyatni shakllantirishda talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va qonuniy yechim topishiga imkon beruvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, huquqiy keyslar, munozaralar, debatlar, rolli o‘yinlar, pedagogik sahnalar va muammoli vaziyatlardan foydalanish samarali pedagogik vosita bo‘lishi mumkin.

Masalan, “O‘quvchining huquqi buzilganda pedagog qanday yo‘l tutishi kerak?”, “O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi huquqiy munosabat qanday bo‘lishi kerak?”, “Ta’lim olish huquqi buzilgan taqdirda qanday choralar ko‘riladi?” kabi vaziyatlarni talabalar bilan muhokama qilish orqali ularda huquqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish mumkin.

Bundan tashqari, pedagogik sahnalardan foydalanish ham huquqiy madaniyatni shakllantirishning amaliy usullaridan biridir. Talabalar real hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan huquqiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqadilar. Sahna yakunida vaziyatni Konstitutsiya va qonunchilik asosida tahlil qilish talabaning huquqiy bilimini amaliy ko‘nikmaga aylantirishga xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogning shaxsiy namunasi ham alohida ahamiyatga ega. Pedagog o‘z faoliyatida qonuniylik, adolat, tenglik, hurmat va mas’uliyat tamoyillariga amal qilsa, bu talabalar va o‘quvchilar uchun amaliy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli bo‘lajak pedagogning huquqiy madaniyatini shakllantirish kelajakdagi o‘quvchilarning huquqiy ongini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Umuman olganda, Konstitutsiyada mustahkamlangan inson huquqlari va ta’lim olish huquqi, fuqarolarning qonunlarga rioya qilish va boshqa insonlarning huquqlarini hurmat qilish majburiyati, o‘qituvchining konstitutsiyaviy maqomi, bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilishga oid normalar hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar pedagogik ta’limda huquqiy madaniyatni shakllantirishning mustahkam huquqiy asosini tashkil etadi.

Shu bois pedagogik ta’limda huquqiy madaniyatni shakllantirishni faqat alohida bir fan doirasidagi vazifa sifatida emas, balki butun ta’lim-tarbiya jarayonining uzviy qismi sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy xulq-atvor, fuqarolik mas’uliyati va inson huquqlariga hurmat bir butun tizim sifatida rivojlantirilishi lozim.

Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.

Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘zboshi muallifi Boqijon To‘xliyev. Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Saydaliyeva N. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarining axloqiy-tarbiyaviy jihatlari. Alfraganus Universiteti konferensiya materiallari, 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — O‘zbekiston, 2023.
— 15, 19, 20, 21, 50, 51, 52, 60, 78, 79-moddalar.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni.
- 4.“Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”. — Lex.uz.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-son Farmoni.
- 6.“O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. — Lex.uz.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 24-apreldagi 202-son qarori.
- 8.2026–2027-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturiga oid hujjat. — Lex.uz.
- 9.Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
- 10.— Ta’lim, tarbiya va axloqiy kamolot masalalari uchun.
- 11.Forobiy, A.N. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
- 12.— Inson kamoloti, fazilat, jamiyat va tarbiya masalalari uchun.
- 13.Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. — Toshkent: Cho‘lpon, 2007.
- 14.— Adolat, bilim, axloq, davlat va jamiyat munosabatlari uchun.
- 15.Dewey, J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. — New York: Macmillan, 1916.
- 16.— Ta’limning jamiyat va fuqarolik hayoti bilan bog‘liqligini asoslash uchun.
- 17.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637, 2020-yil 23-sentabr. — Lex.uz.
- 18.— Ta’lim tizimi, ta’lim oluvchilar va pedagoglarning huquqiy maqomini yoritish uchun.
- 19.O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-901, 2024-yil 1-fevral. — Lex.uz.